

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKAUNIVERSITETI

**Zamonaviy ta'lim va ma'naviy-axloqiy  
tarbiyaning dolzarb masalalari**

**mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi**

**M A T E R I A L L A R I**

2024 yil 17-oktyabr

**“Zamonaviy ta’lim va ma’naviy-axloqiy tarbiyaning dolzarb masalalari”  
mavzusidagi xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi.**

**Toshkent.: 2024 yil. 17-oktyabr.**

Mazkur to‘plamda respublikamiz OTM professor-o‘qituvchilarining ta’lim tizimi samaradorligini oshirish, ta’lim-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash: kecha va bugungi xolati, Tarbiya fani o‘qituvchisini tayorlashning huquqiy-me’yoriy asoslari, ta’lim muassasalarida Tarbiya fani o‘qituvchisini faoliyatining asosiy yo‘nalishlari, ta’lim-tarbiya jarayonida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishning pedagogik va psixologik jihatlariga doir qarashlari va taklif-mulohazalar o‘z aksini topgan. Mazkur to‘plam materiallaridan ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari, katta ilmiy xodim-izlanuvchilar, mustaqil tadqiqotchilar, talabalar va sohaga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

**Mas’ul muharrir: F.O. Mirzaeva** – Pedagogika kafedrasini mudiri, dotsent

**Tahrir hay’ati a’zolari:**

Pedagogika fanlari doktori professor - **Sh.Shodmonova**

Pedagogika fanlari doktori professor - **A.Muxsiyeva**

**Taqrizchilar:**

**M.B.Urazova** – pedagogika fanlari doktori professor

**M.T.Mirsoliyeva** – pedagogika fanlari doktori, dotsent

Sahifalovchi - **G.X. Narzullayeva** - 1-kurs magistranti.

*Anjuman materiallari Nizomiy nomidagi TDPU Ilmiy Kengashining  
2024 yil 17-oktyabrdagi 4 – sonli bayonnomasi bilan nashrga tavsiya  
etilgan.*

To‘plamga kiritilgan maqolalarning mazmuni, ilmiy salohiyati va dalillarning haqqoniyligi, stilistik va orfigrafik xatolar uchun mualliflar mas’ul.

4. Әуелбаев Ш. «Бастауыш класта қазақ тілін оқыту методикасы» Алматы «Мектеп». 1987ж.

5. Қ.Молдабек, Қ Сандыбай, Ы. Балқыбекова «Бастауыш мектепте тіл дамыту» Шымкент. 1999ж

## **“MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING NUTQINI RIVOJLANTIRISHDAGI INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING TASNIFI”**

**Muhiddinova Dilfuza Sherdor qizi**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

"Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrası stajyor o'qituvchisi

E-mail [dilfuzaxon223@gmail.com](mailto:dilfuzaxon223@gmail.com)

**Kenjabayeva Nafisa G'ayrat qizi**

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2- bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanuvchilarning maktab ta'limiga tayyorlanishida asosiy va yetakchi o'rin tutuvchi jihat bu kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishdir. Bundan ko'rinadiki, nutq o'stirish jarayoniga innovatsion ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish muhimdir. Ushbu maqolada bolalar nutqini o'stirishda qo'llaniladigan samarali usullarning afzalliklari o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha yosh, kommunikativ kompetentsiya, innovatsion texnologiyalar, nutqni rivojlantirish.

Barchamizga ma'lumki, maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturida belgilangan bolalarga ta'lim berishda kompetentsiyaviy yondashuvning muhim qismi sanaladi. 6-7 yoshli bolaning umumiy muhim kompetentsiyalari sifatida birinchi navbatda, kommunikativ kompetentsiya, ya'ni muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasini shakllantirish belgilangan. Demak, tarbiyalanuvchilarning o'yin, bilish va ijtimoiy kompetentsiyasi qatorida muloqot kompetentsiyasi asosiy o'rinni egallaydi. Shunday ekan, MTTda har bir ta'limiy faoliyat mazmunida bolaning nutqini o'stirish va muloqotchanlik ko'nikmalarini shakllantirish asosiy vazifa hisoblanadi. Bola yangi bilimlarni o'yinlar va didaktik vositalar asosida o'zlashtirganida samaradorlik yuqori bo'ladi. Ya'ni badiiy adabiyotni oddiy o'qib berishdan ko'ra innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llagan holda faoliyatga tatbiq etish har bir bolaning nutqini rivojlantirish jarayonini ta'minlaydi, tezlashtiradi va

shu bilan ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. Buning uchun maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish va jarayonda faol qo'llash talab etiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini shakllantirish muhim va qiyin vazifadir. Ushbu muammoni muvaffaqiyatli hal qilish ham bolalarni yaqinlashib kelayotgan maktabga tayyorlash uchun, ham boshqalar bilan qulay muloqot qilish uchun zarurdir. Bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha yurtimiz va MDH davlatlari pedagoglari qator izlanishlar olib borishganki, xususan, R.Inog'omova, L.Mo'minova, V.Gerbova, M.Konin, G.Lyamina, O.Ushakovalarning pedagogik xazinasidan foydalanib MTTda nutq o'stirish ishlarini mazmunli tashkil etish mumkin.

Innovatsion texnologiyalar - bu pedagogik faoliyat natijasiga samarali erishishni ta'minlaydigan tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi o'zaro ta'limiy munosabatlarning yangi usullari va uslublaridir. Bunday ta'limiy muhit zamonaviy sharoitlarda bolaning shaxsiy rivojlanishidagi dinamik o'zgarishlar tufayli ijobiy natijaga erishishga qaratilgan ta'limiy usullar, metodlar, vositalarni o'z ichiga oladi. Aynan MTTda nutq o'stirish jarayonida badiiy adabiyotning o'rni beqiyosligini e'tirof etgan holda, badiiy asarlarni yangi texnologiyalar vositasida bolalarga o'rgatishning samaradorligi yuqori ekanligini kuzatdik. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish ko'p jihatdan quyidagilarning to'g'ri hal etish bilan bog'liq:

- nutqni rivojlantirishga doir didaktik materiallar tarkibiga ota-onalar, tarbiyachining ma'lum maqsadga qaratilgan nutqi, bolalarga o'qib yoki aytib beriladigan ertak, she'r, qo'shiqlar, hikoyalar muntazam kiritilishi;

- ta'limning didaktik materiallarni foydalanadigan tarzda zamonaviy tashkil etilishi;

- ta'limiy o'yinlarda bolalarning faol nutqiy muloqotda bo'lishini ta'minlash.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi bolalarning nutq qobiliyatini shakllantirishda quyidagi qiyinchiliklarga duch kelmoqda:

- har bir bolaning individual qobiliyatlarini aniqlash va mos ravishda rivojlantirish;

- hamkorlikka asoslangan ta'lim munosabatlarida bolani faollashtirish;

- nutqiy qobiliyati yashirin bolalar bilan olib boriladigan alohida o'yinli vaziyatlar yaratish.

Shunday qilib, an'anaviy ravishda badiiy asarlarni o'qib berishdan ko'ra innovatsion shaklda badiiy asar bilan tanishtirishning amaliy afzalliklarini tasniflaymiz.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun an'anaviy ta'limiy faoliyat tarbiyachining hikoya qilib berishi, o'qib berishi va takrorlatgan holda yod oldirishini tan oladi. Ammo tajriba shuni ko'rsatadiki, bolalar tarbiyachining hikoyasini kichik

o'zgarishlar bilan takrorlaydilar, hikoyalar kambag'al so'zlar vositasida talqin qilinadi xolos. Shuning uchun, hikoyani o'qib berish jarayni nihoyasiga yetgach, bolalardan qayta hikoya qilib berish emas, shu hikoya asosidagi aralash kartinkalarni magnitli doskaga o'z o'rniga ko'ra terib chiqishini talab etadigan "Rasmlarning o'rnini top" o'yini bolalarni faol nutqiy vaziyatga undaydi. Ular voqealar ketma-ketligiga ko'ra rasmlarni izlab topish jarayonida nafaqat nutqi balki, diqqati, kuzatuvchanligi, mantiqiy fikrlashi rivojlanadi. O'zlari hosil qilayotgan hikoya kompozitsiyasini kuzatish tarbiyalanuvchilarni faollashtiradi va yangi so'zlar bilan tasvirlashga urinadi. Ushbu faoliyat bolalarni zerikishdan himoya qiladi, butun guruhni qayta hikoya qildirishga imkon bo'lmagan taqdirda, bu usul vositasida barcha bolalar ish jarayoniga jalb etiladi. Ayniqsa tarbiyachi asosiy ijrochi rolidan kuzatuvchi darajasiga statusini o'zgartirishi bolalarga erkinlik beradi. Pedagogning ijrochi-bolalar xatti-harakatlarini rag'batlantirishi esa nutqiy faollikka yo'l ochadi.

Shu kabi innovatsion texnologiyalarni tanlashda quyidagi talablarga e'tibor qaratish kerak:

- texnologiyani o'qib berish emas, balki bolalarning muloqot qobiliyatini rivojlantirishga, nutq madaniyatini tarbiyalashga yo'naltirish;

- har bir bola uchun uning yoshi va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda har xil faoliyat turlarida faol nutq amaliyotini tashkil etish.

Shundan kelib chiqib, maktabgacha yoshdagi bolalarning izchil nutqini shakllantirish va faollashtirish uchun an'anaviy usul va metodlar bilan bir qatorda quyidagi innovatsion texnologiyalar qo'llaniladi:

1. Vizual modellashtirish texnologiyasi.
2. AKT texnologiyalari.

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitishda vizual modellashtirish samaralidir. Ushbu usul yordamida tarbiyachi va bola soddalashtirilgan sxematik tasvirlar -belgilar, belgilar yordamida ob'ektlar, hodisalar, harakatlar, tushunchalar, epizodlarni tasvirlaydilar. Vizual modellashtirish bolalarga turli xil bilimlarni yetkazish usuli sifatida ajralib turadi. Shuningdek ularning aqliy va nutq qobiliyatlarini rivojlantirish vositasi sifatida muvaffaqiyatli ishlatiladi. Yuqorida keltirganimiz "Rasmlarning o'rnini top" o'yini vizual modellashtirishga misol bo'la oladi.

2. Psixologlarning ta'kidlashicha, bolalarga kompyuterda, katta ekranda namoyish etiladigan har qanday yangi ma'lumot jozibali hisoblanadi. Zamonaviy bolalar ba'zida ma'lumotlarni oddiy eshitganidan ko'ra kompyuter texnologiyalari vositasida tezroq o'rganadilar. Birgina misol, eshitgan hikoyasi personajlarini yodidan ko'tarilishi mumkin, lekin multfilm qahramonlarini uzoq muddat eslab qoladi. Shuning uchun bugungi kunda maktabgacha ta'limda AKTdan foydalanish zarurati aniq. Nutqni rivojlantirish uchun ta'limiy jarayonda AKTdan foydalanish

juda keng imkoniyatlarni taqdim qiladi. Xususan, elektron resurslar yordamida badiiy asar matnini eshitish bolalarga monotonli hikoyadan ko'ra ta'sirliroqdir. Chunki elektron resursda musiqa qo'shish va qushlar, suv, shamol ovozi kabi vositalardan foydalanish matn samaradorligini ta'minlaydi. AKT asosida tinglangan matnlarga ham bolalar hozirjavoblik va qiziqish bilan javob beradi.

Nutqni rivojlantirishning asosiy vazifalari - so'z boyligini boyitish va faollashtirish, nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish, izchil nutqqa o'rgatish maktabgacha yosh davrida hal qilinishini inobatga oladigan bo'lsak, ijodiy ta'lim texnologiyalariga alohida e'tibor qaratish lozim. Xususan, nutq o'stirish faollik markazini badiiy qo'llanmalarga va didaktik materiallarga boy tarzda jihozlashga e'tibor berish kerak. Bolalar nutqining barcha qirralarini rivojlantirishga yo'naltirilgan mavzuga mos syujetli rasmlar to'plamlari, sahnalashtirishga mo'ljallangan o'yinchoqlar to'plamlaridan, bosma didaktik o'yinlardan tashkil topgan metodik bankni yaratish tarbiyachi zimmasidadir. Badiiy adabiyot bilan tanishtirish nutqni rivojlantirishda muhim rol o'ynashini e'tirof etgan holda, guruhlarda kitoblar burchaklari va "Aqlli kitoblar tokchasi" tashkil etilishi muhim. Chunki tarbiyalanuvchilar bunday materiallar bilan bevosita yangi taassurotlar, bilim, ko'nikmalar bilan tanishadi. Dialogik, hissiy jihatdan boy nutqi shakllanishi uchun qulay muhitda bo'ladi. Badiiy asarlar vositasida bolalarning nutqi va tafakkuri rivojlanar ekan, bir paytning o'zida bog'lanishli dialogga kirishadi, fikrlarini bayon etishga kirishadi. Bu bolaga zavq va quvonch bag'ishlaydi, bu tuyg'ular nutqni faol idrok etishni rag'batlantiradigan va mustaqil nutq faoliyatini yaratadigan eng kuchli vositadir. Buni amaliyotda kuzatganimizda o'yinlar va samarali ta'lim texnologiyalari asosida nutq o'stirish mashg'ulotlari o'tkazilganida bolalarning faolligi, fikrlarini dadil asosda bayon qilgani, jarayonda zerikish bilmaganligi, lug'atida yangi so'zlarni qo'llaganligi, qiziqishlari tufayli yangi ma'lumotlarni o'zlashtirishga ishtiyoq uyg'onganligi ma'lum bo'ldi. Bu esa MTTda bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda umumiy muhim kompetentsiyalarni shakllantirishning asosiy va zarur talabidir. Mana shularni inobatga olgan olgan xulosa qilish mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan nutq o'stirish ta'limiy faoliyat jarayoni va nutq o'stirish faollik markazidagi jarayonlar zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda olib borilishi zarur. Chunki maktabgacha ta'lim tashkiloti ishiga innovatsiyalarni kiritish maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish va isloh qilishning eng muhim shartidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ostonov J.Sh. Basic strategies for coping behavior in adolescents. E-Conference Globe 2021/7/26 275-277 c

2. Ostonov J.Sh. Coping behavior and its research style. Proceedings of 7th Global Congress on Contemporary Sciences & Advancements// Hosted online from,New york, USA/June 25, 2021. 237-239 b

3. Ostonov J.Sh. Socio-Psychological Basics of The Study of The Styles of Attitude in Coping by. Adolescents Middle europen scientific bulletin Volume 13 June 2021. Б. 442-446

4. Остонов Ж.Ш. Изучение копинг-стратегий и психологических защит у подростков в трудных учебных ситуациях. Вестник интегративной психологии //- Ярославль, 2021. Выпуск 22. С.144-146

5. Остонов Ж.Ш. Концепция копинга: определение, функция и виды. Вестник интегративной психологии //- Ярославль, 2020. Выпуск 22. С.279-281

6. Остонов Ж.Ш. Усмирларда психологик ҳимоя ва копинг ҳулк-атвор омиллари намоён булишининг узига ҳос хусусиятлари. Psixologiya jurnali. 2021 й. 4-сон. 66-73 b

## MUNDARIJA

B.S.Abdullayeva RAQAMLI PEDAGOGIKA – ZAMONAVIY TA'LIMNING ASOSI SIFATIDA	3
M.Э. Мамаражабов РАҚАМЛИ ПЕДАГОГИКА ВА УНИНГ ИМКОНИАТЛАРИ	5
Аупов Ravshan Hamdamovich ТА'LIM JARAYONIGA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING SAMARADORLIGI	9
X.SH.Kadirov RAQAMLI MEDIA SAVODXONLIKNING TA'LIMDAGI IMKONIYATLARI	14
K.K.Kudratov RAQAMLASHTIRILGAN TA'LIMNING IMKONIYATLARI VA SAMARADORLIGI	15
Umarov Xusan Abduraximovich – TEKNOLOGIYA FANINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH (MEHMONXONA INTERYERINI YARATISH" MAVZUSI MISOLIDA)	17
Толплов Ўткир Қаршиевич ТАЪЛИМДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ЎРНИ ВА РОЛИ	20
Saidova Zaxro Rahmatullayevna ZAMONAVIY TA'LIMDA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI	24
Marasulova Dono Nigmatullayevna – MAKTABGACHA TA'LIMDA INGLIZ TILINI O'RGATISHDA ELEKTRON MULTIMEDIA TA'LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISH	26
Tuychieva Nodira MODERN APPROACHES TO DETERMINING THE ROLE OF TEACHING IN THE DEVELOPMENT OF THE DIGITAL EDUCATION ENVIRONMENT	30
Ахмедова Санам Джалаловна СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИСТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ РЕФОРМИРОВАНИЯ ЦИФРОВИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ	34
Муратов Эльвин Ильич, Рихсибоева Руззаниа Шухрат кизи РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАНИЯ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ	37
Юсупова Гульчехра Юлдашовна РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ И ЗНАНИЙ В ОБЛАСТИ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ УЧИТЕЛЕЙ ИНФОРМАТИКИ	40
F.A.Umarova TEKNOLOGIK TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI O'RNI.	43
Abduraimov Dostonbek Egamnazar o'g'li TA'LIM JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH	45
Userbayeva Feruza Inoyat qizi USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION AND REFORMS IN EDUCATION	48
Abdullayeva Ozoda Odiljon qizi INDIVIDUAL YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARDA RAQAMLI O'RGANISH KO'NIKMLARINI SHAKLLANTIRISH	51
Umarova Zaxro Abduraxim qizi TALABALAR MUSTAQIL TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR	53
Nig'matullayev Ibrohim Ma'ruf o'g'li TA'LIM JARAYONINI TRANSFORMATSIYALASH – DAVR TALABI	56
Madaminov Uktam Ataxanovich OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA FANLARNI MOBIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH METODIKASI	60
Jaynarov Obid Hamid o'g'li TA'LIM JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH	64
Xasanova Nargiza Muxammadrasul kizi ЦИФРОВАЯ ПЕДАГОГИКА В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ	65
Rejabova Dildora Ergashali qizi – RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR - BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI	68
Akmalova Nargiza Abbos qizi – MATEMATIKA DARSLARINI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DASTURIY TA'MINOTDAN FOYDALANISH	71
Botirova Nigora Koyirovna GOOGLE CLASSROOM - "VIRTUAL SINIF" TEXNOLOGIYASI	75
Fayzullaeva Madina Abdumumin kizi APPLICATION OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE FIELD OF EDUCATION	80
Karimov Xasan Narzullayevich FIZIKA FANINI O'QITISHDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKILLASHTIRISH: MUAMMO VA YECHIMLARI	86
Rustamova Shohista Alisher qizi	90



Bozorova O'g'iloy Hikmat qizi, Imomov Abdusalom Mo'minjon o'g'li <b>HOSILANING FIZIK JARAYONLARDAGI AHAMIYATI</b>	687
Raxmonova Gulchexra Salaydinovna <b>ZAMONAVIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHDA YOSHLARDA MA'NAVIY AXLOQIY TARBIYANING O'RNI.</b>	689
Xamidov Jamshid Abdisamiyevich, Po'latova Mahliyo Mahammadjon qizi, Xolmo'minova Rayhona Anvar qizi <b>KLASTER YONDASHUV ASOSIDA OLIY TA'LIM MUASSASASI BILAN UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI BILAN IJTIMOY HAMKORLIKNI TASHKIL ETISH</b>	695
Xamidov Jamshid Abdisamiyevich, Djalgashova Kurbanay Yembergenovna, Nazarova Sevvara O'tkir qizi <b>TEXNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING ROLI VA AHAMIYATI</b>	698
Xalmuxamedova Maxbuba Aslanovna, Amanova Madinaxon Xusniddin qizi Asadullayev Shaxzodxo'ja Zuxriddin o'gli, Axmedova Izzat Po'latovna <b>MEHNAT VA UNING TALABALARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI O'RNI</b>	700
Xalmuxamedova Maxbuba Aslanovna, Erkinova Nilufar Vahob qizi, Tursunaliyeva Rayhona Ne'matjon qizi, Jalg'asova Danila Batir qizi <b>BO'LG'USI TEXNOLOGIYA O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA AXBOROT- KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH</b>	704
Yakubova Marhabo Yusufovna, Muhammadjonova Ruxshona Maqsudjon qizi, Norqo'ziyeva Ozoda Baxodir qizi, Abdullayeva Zuxra O'tkirmurodovna <b>TEXNOLOGIYA FANI NEGIZIDA XALQ HUNARMANDCHILIGINI YOSH AVLODGA CHUQUR O'RGATISH ZARURLIGI</b>	708
Yakubova Marhabo Yusufovna, Usmonova Oqibat Valievna, Saydullayeva Marjona Shodibek qizi, Nuriddinova Farangiz Farux qizi <b>XALQ HUNARMANDCHILIGI, MILLIY ME'MORCHILIK NAMUNALARINING FALSAFIY, PSIXOLOGIK VA TARBIYAVIY JIHATLARINI ANGLASH</b>	711
Эргашев Аслбек Хамза угли <b>СОВЕТ ВА ПОСТСОВЕТ ДАВРИДАГИ РУС ВА ЎЗБЕК ЭССЕИСТИКАСИ</b>	715
Diloram Fayazova <b>BOSHLANG'IM TA'LIMDA MATEMATIKA DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH KO'NIKMALARI</b>	718
Kenjaboyeva Muattar Homidjon qizi <b>TABIIY USULDA GRADIURLANGAN KVAZI-FILIFORM LEYBNIS ALGEBRASINING DIFFERENSIALI</b>	724
Madiyeva Moxira, Asadullayeva Mastura Abduvaxobovna <b>INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA MUSIQA YORDAMIDA O'QUVCHILARNI DAVOLASH</b>	729
Qudratilayeva Shaxriza, Asadullayeva Mastura Abduvaxobovna <b>INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA ZAIF ESHITUVCHI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH METODIKALARI</b>	732
Nortoyeva Noila, Asadullayeva Mastura Abduvaxobovna <b>INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA UKUVCHILAR RIVOJLANISHIDA MUSIQA DARSLARINING AXAMIYATI</b>	737
Asadova Shahnoza, Asadullayeva Mastura Abduvaxobovna <b>INKLYUZIV TA'LIMDA KO'ZI OJIZLARGA MUSIQA OQITISH METODIKASI</b>	744
Matlibova Nilufar Xamid qizi <b>O'SMIRLARNING ANTROPOMETRIK KO'RSATKICHLARIDAGI O'ZGARISHLAR</b>	746
Jumaniyazova Zulfiya Aytboyevna <b>INKLYUZIV TA'LIMNI INTEGRATSIYASINING TASHKILIY PEDAGOGIK MUAMMOLARI</b>	750
Калибаева Гулноза Абдурахимовна <b>ГЛЮТТОНИК ДИСКУРСДА МИЛЛИЙ-МАДАНИЙ АТАМАЛАРНИНГ ҚИЁСИЙ ТАХЛИЛИ</b>	753
Meylieva Mutabar Sayfullayevna <b>O'QUVCHILARNING MUSTAQIL IJODIY FAOLIYATINI KOMPITENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH</b>	757
Рустемов А.Т. Молдабаева Н.Б. <b>БАЛАБАҚШАДАҒЫ ТӨРБИЕЛЕУ ЖҰМЫСТАРЫ</b>	760
Shariyeva Gavxar Turavoyevna, Alliyeva Gulsanam Bayirzoda <b>BOLALAR MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI- TA'LIMNING OLTIN BESHIGI</b>	762
Muhiddinova Dilfuza Sherdor qizi, Kenjaboyeva Nafisa G'ayrat qizi	764

<b>“MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING NUTQINI RIVOJLANTIRISHDAGI INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING TASNIFI”</b>	
<b>Karimova Sarvinoz Po'latovna, Ergasheva Feruza Muzaffar qizi</b> <b>MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDABOLALARNI MUSIQIY TARBIYALASH VA TA'LIM BERISH</b>	768
<b>Narimbayeva Lola Kuzibayevna, Ilesova Lazzat Asan qizi</b> <b>MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI O'YIN FAOLİYATI ORQALI KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI</b>	770
<b>Saidqulova Gavhar Odiljon qizi, Jo'rayeva Manzura Akmal qizi</b> <b>MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOSHQARUVNI TASHKIL ETISHNING INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI</b>	774
<b>Narimbaeva Lola Kuzibayevna, Jumamurodova Shohzoda Ilhom qizi</b> <b>MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI</b>	777
<b>Karimova Sarvinoz Po'latovna, Madraimova Asal Baxrom qizi</b> <b>YOSH AVLODNING MUSIQIY ESTETIKASINJ OSHIRISH XUSUSIDA</b>	779
<b>Karimova Sarvinoz Po'latovna, Mamadismanova Sabrina Axmadjon qizi</b> <b>OILA, TA'LIM MUASSASASI VA IJTIMOYIY BORLIQDA O'SIB KELAYOTGAN AVLODNI SHAKLLANTIRUVCHI MUHIM IJTIMOYIY INSTITUTLAR SIFATIDA</b>	782
<b>Muhiddinova Dilfuza Sherdor qizi, Raxmonqulova Anora</b> <b>MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA RIVOJLANTIRUVCHI O'YIN TEXNOLOGIYASI ASOSIDA REFLEKSIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH</b>	787
<b>Muhiddinova Dilfuza Sherdor qizi, Xasanova Ruxshona Farxodovna</b> <b>PEDAGOGLARNING AKT (Axborot kommunikatsiya texnologiyalari) SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR</b>	790
<b>Narimbayeva Lola Kuzibayevna, Masharifova Rayhona Abdulakimovna</b> <b>BOLALARNING TEATRLASHTIRILGAN FAOLIYATINI TASHKIL ETISH ORQALI MULOQOT KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHI</b>	793
<b>Narimbaeva Lola Kuzibayevna, Musaeva Gulmira Muxammadali Kizi</b> <b>MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARINING SHAKLLANISHI</b>	797
<b>Каримова Сарвиноз Пулатовна, Носиржонова Марина Дилкашбек</b> <b>МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ КЎЗИ ОЖИЗ БОЛАЛАРНИ МУСИҚИЙ КЎНИКМАЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШИ</b>	800
<b>Saidqulova Gavhar Odiljon qizi, Odilbekova Ruzanna Quvondiq qizi</b> <b>MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIMIY JARAYONLARNI REJALASHTIRISHGA INNOVATSION YONDASHUV</b>	802
<b>Kodirova Muyassar Eshmamat qizi, Ziyodullayeva Sabrina Sunnatullo qizi</b> <b>MAKTABGACHA TA'LIM TARBIYA: KECHA VA BUGUN VA ERTA MISOLIDA</b>	806
<b>Kodirova Muyassar Eshmamat qizi</b> <b>GIPERAKTIVLIKNING MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARDA IJTIMOYIY VA FIZIOLOGIK SABABLARGA KO'RA KELIB CHIQISHI VA TASNIFLANISHI</b>	810
<b>Narimbayeva Lola Kuzibayevna, Rustambekova Aynissa Ravshan qizi</b> <b>TEATR FAOLIYATI ORQALI BOLALARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARINING RIVOJLANTIRISHI</b>	816
<b>Saidqulova Gavhar Odiljon qizi, Sultanova Sarvinoz Muzaffar qizi</b> <b>MAKTABGACHA TA'LIMDA MUSIQA TARBIYASI</b>	819
<b>Saidqulova Gavhar Odiljon qizi</b> <b>PEDAGOGIK OLIY TA'LIM MUASSASALARI MAKTABGACHA TA'LIM TALABALARI O'RTASIDA MUSIQA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH MECHANIZMLARI</b>	821
<b>Shariyeva Gavhar Turavoyevna, Salimboyeva Shoista San'atjon qizi</b> <b>BOLA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BOLA TILINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI</b>	825
<b>Tursunboyeva Zuxra Umid qizi</b> <b>MAKTABGACHA YOSHDAGI TARBIYALANUVCHILARNI ATROF –OLAM BILAN TANISHTIRISH USHLARI</b>	827
<b>Xolmatova Salima Kuziboyevna, Bahiyarova Ro'za Oybek qizi, Jamaliddinova Gulsanam Zokirjon qizi</b> <b>DIDAKTIK O'YINLARNING MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING AQLIY RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI</b>	832









